

INTELLEKTUAL YOSHLAR-VATANIMIZ KELAJAGI

Maksudov Dilmurod Tulkunovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

70411202 - Loyiha boshqaruvi (Project Management)

ta'limi yo'nalishi magistratura tinglovchisi

g-mail: dilmurodmaksudov83@gmail.com

Ilmiy rahbar: Axmedov Sh.Sh.

Annotatsiya: Tez sur'atlar bilan taraqqiy etayotgan davrda mamlakatning har tomonlama taraqqiy etishi unda istiqomat qiluvchi aholi intellektual salohiyatining qay darajada ekanligiga chambarchas bog'liq. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida intellektual taraqqiy etmagan davlatning istiqboli bir yoqlama bo'lib qoladi. Xususan, taniqli hind olimi Mahatma Gandi xalqimizning globallashuv jarayonlariga munosabatini quyidagicha izohlashi mumkin: "Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga ochilgan eshik va derazalarimizdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilishini, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman."¹

Kalit so'zlari: Intellekt, salohiyat, yuksalish, taraqqiyot, kashfiyot, innovatsiya, rag'batlantirish, moliyalashtirish, yoshlar.

Annotation: In the period of rapid development, the comprehensive development of the country depends on the intellectual potential of its population. In today's globalized world, the perspective of an intellectually underdeveloped state is unilateral. The attitude of our people to the processes of globalization can be explained by the well-known Indian scientist Mahatma Gandhi: "I can not always close my home gates and windows, because my house needs fresh air. At the same time, I do not want the air coming through our doors and windows to turn into a storm, to destroy my house, and to destroy myself".

Keywords: Intelligence, Capacity, Development, Research, Discovery, Innovation, Promotion, Financing, Youth.

Аннотация: Комплексное развитие страны в период бурного развития зависит от интеллектуального потенциала ее населения. Особенно в сегодняшнем глобализированном мире перспективы слаборазвитого государства будут односторонними. В частности, известный индийский ученый Махатма Ганди может объяснить реакцию нашего народа на глобализацию следующим

¹ "Milliy istiqloq g'oyasi: o'zbekiston Respublikasi bakalavriat bosqichi uchun darslik" - T.: "Akademiya" nashriyoti, 2005. B.81

образом: В то же время я не хочу, чтобы воздух, проходящий через наши двери и окна, взрывал мой дом и разрушал его ».

Ключевые слова: Интеллект, потенциал, развитие, исследования, открытия, инновации, продвижение, финансирование, молодежь.

XXI asr- globallashuv asrda intellektual salohiyat va uning mevasi kirib bormagan soha qolmagan desak, adashmaymiz. Ushbu mavzu yuzasidan muhtaram yurtboshimiz shunday fikr bildirgan: “Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda. Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma'lum ma'noda haqiqat, ratsional mag'iz bor. Chunki, ularning har biri o'zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko'pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg'otmoqda”²

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga, ularning ta'lim-tarbiyasi, intellektual salohiyati va barkamol inson bo'lib yetishishlariga katta e'tibor beriladi. Intellektual boylik hukmronlik qiluvchi XXI asrda yoshlarni aqliy salohiyatini o'stirish, yoshlar tomonidan ilgari surilgan innovatsion g'oyalarni ma'naviy va moddiy tarafdan qo'llab-quvvatlash, yoshlarni barkamol inson qilib voyaga yetkazish muhim vazifa sanaladi.

Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarni o'z zimmasiga o'la biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ulkan ma'naviy tarixga ega xalqimizning har bir a'zosi farzandlarimizning yorqin kelajagi haqida orzu qiladi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, samarali sarmoya — bu farzand ta'limi uchun ajratilgan sarmoyadir.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar respublika aholisining 60 foizidan ziyodni tashkil etadi. O'zbekistonda zamonaviy yoshlarning intellektual, ma'naviy va jismoniy rivojlanishi masalasi bugungi kunda davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan.³

Mustaqillik mamlakatimizda yoshlarni vatanparlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularni huaquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilayotgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo'lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

² “Milliy istiqlol g'oyasi: o'zbekiston Respublikasi bakalavriat bosqichi uchun darslik” - T.: “Akademiya” nashriyoti, 2005. B.125

³ <http://m.xabar.uz/uz/texnologiya/ziyonet-farzandlarimiz-kelajagi-uchun-s>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yilning 30-avgustida “Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorining qabul qilinishi va Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Yoshlar akademiyasi tashkil etilganligi ushbu sohada yaratib berilayotgan ulkan imkoniyatning yorqin namunasi desak bo‘ladi. Tizimli ravishda iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va olimlarning yangi avlodini tayyorlashni maqsadi deb bilgan Yoshlar akademiyasi o‘z faoliyati doirasida, - “ 1. Ilmiy-tadqiqotlarni bajarish ishtiyoqiga ega iqtidorli yoshlarni

qo‘llab-quvvatlash, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni olib borishlariga imkon yaratish, yangi avlod yosh olimlarini tayyorlash bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish;

2. Yosh olimlar tomonidan aniq vazifalarni hal etishga, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan ilg‘or texnologik ishlanmalarni ishlab chiqishga qulay sharoitlar yaratish;

3. Ilmiy-innovatsion akselerator va biznes-inkubatorlarni tashkil etish asosida tashabbuskor yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltirish;

yoshlarning startap loyihalarini xo‘jalik boshqaruvi organlari va davlat ulushi mavjud korxonalarini izchil rivojlantirish bo‘yicha zamon talablariga javob beradigan, tijoratlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga yo‘naltirish;

4. Iqtidorli yoshlarning rivojlangan xorijiy mamlakatlarning nufuzli ilmiy markazlari, universitetlari, texnoparklari va ishlab chiqarish korxonalarida malaka oshirishlariga ko‘maklashish;

5. Xalqaro va mahalliy darajada e‘tirof etilgan tashkilotlar, universitetlar, ilmiy markazlar bilan yaqindan aloqalar o‘rnatish, ularning olimlari va mutaxassislari ishtirokida mahorat darslari, treninglar, shuningdek, dolzarb ilmiy-innovatsion yo‘nalishlar bo‘yicha konferensiyalar, seminarlar va tanlovlar o‘tkazish.”⁴, -deb belgilab olganligi ushbu soha istiqboli kafolatlanganligini ko‘rsatib beradi.

Yaratib berilayotga imkoniyatlardan kelib chiqqan holda:

1. Ta‘lim muassasalaridagi tabiiy va aniq fanlarni o‘qitish jarayonlarida 5D ko‘rinishdagi ko‘rgazmali qurollaridan keng foydalanishni joriy qilish;
2. Har bir ta‘lim muassasalarida “Intektual yoshlar” klubini tashkil qilish;
3. Respublika miqyosida ayni soha bo‘yicha o‘tkaziladigan loyiha, tanlov, tadbirlar soni hamda qamrov darajasini yanada oshirish taklifini bermoqchiman.

Ushbu takliflar samarasi bilan mamalakatda intellektual salohiyatli yoshlar kashf etiladi. Bundan tashqari ular uchun o‘z iqtidorlarini namoyish etish va yanada oshirish uchun yangi bir imkon yaratiladi.

⁴ <http://m.xabar.uz/uz/tehnologiya/ziyonet-farzandlarimiz-kelajagi-uchun-s>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Milliy istiqlol g'oyasi: nashriyot,2005.B.81
2. <http://m.xabar.uz/uz/tehnologiya/ziyonet-farzandlarimiz-kelajagi-uchun-s>
3. <http://ziyonet.uz>
4. <http://library.ziyonet.uz/uzc/book/download/98277>